



BOSHLANG'ICH TA'LIM FANLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Umirova Mohinur Mirzo qizi

Shahrisabz davlat pedagogika
instituti Boshlang'ich ta'lism
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lism fanlarini o'qitishda innovatsion yondashuvning ahamiyati xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ta'lism, innovatsiya, metodika, kreativ fikrlash, tushuncha, dars, bilim, integratsiya, didaktika, sinf jamoasi, interaktiv, mantiqiy fikrlash

KIRISH

Boshlang'ich ta'lism, ta'lism tizimimizda asosiy va muhim davr hisoblanadi. Chunki ushbu davrda o'quvchilar eng sodda va muhim bilimlarni o'zlashtiradilar. O'quvchilarning eng zarur bilimlarini o'zlashtirishi boshlang'ich ta'lism paytida amalga oshiriladi. Demak bundan ko'rinish turibdiki, ushbu jarayonga har bir pedagog o'ta mohironalik va mas'uliyat bilan yondashmog'i talab etiladi. Umumiy o'rta ta'lism maktablarida boshlang'ich sinf 4 yilni o'z ichiga olgan bo'lib, ushbu 4 yil mobaynida o'quvchilar bir nechta fanlardan ko'plab yangi bilimlarga ega bo'ladilar. Yoshlarni ta'lism – tarbiya olishida kelgusida komil shaxs bo'lib yetishida barcha jamiyat a'zolarining faol ishtiroki talab etiladi. Ta'lism jarayonini muvofiqlashtirish, tizimga yangi islohotlarni olib kirish, o'qitish shaklini yengillashtirishga va o'quvchilarni sifatlari bilim olishiga sabab bo'ldi. Jamiyatni yuksalishida, eng birinchi navbatda ta'lism tizimiga yangiliklar kiritish natijasida erishish mumkin. Chunki ta'lism sohasi rivojlangan jamiyatda barcha sohalar va yo'nalishlarni yuksalish darajasi oshib boradi. Ta'lism sohasi taraqqiy etsa, yoshlarning bilim saviyasi va ma'naviy yetuklik darajasi yuqorilaydi. Sifatli ta'lism vatan taraqqiyotining muhim omilidir. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev o'z nutqlarining birida ta'lism – tarbiya haqida quyidagi jumlalarni keltiradilar. "Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni -bilim, ta'lism va tarbiya bo'ldi". Darhaqiqat, vatanimiz taraqqiy etishi, bilimli va zukko yoshlarning zimmasidadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Tadqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta'lism to'g'risidagi qonun, mavzuga oid adabiyotlar va bir qancha o'quv qo'llanmalardan foydalanildi.

MUHOKAMA

Bizga ma'lumki, umumiy o'rta ta'lism maktablarida foydalanilayotgan darsliklar, Milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan va yangi tahrirda nashr etilgan hisoblanadi.



Hozirgi kunda ta'lim tizimimizga joriy etilgan darsliklar bilan bundan bir necha yil oldin foydalanilgan darsliklar orasidagi tafovutlar ancha katta. Hozirgi darsliklar o'quvchilarni ko'proq mantiqiy va ijodiy fikrlashga undaydi. O'rganilayotgan bilimlarni amaliyatga tatbiq etishi bilan o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Oldingi darsliklarda nisbatan sodda mushohada yuritadigan o'rgangan bilimlarni mustahkamlab boruvchi topshiriqlar o'rin egallagan. Yangi darsliklar esa o'quvchilarni kreativ fikrlashga undaydi va fikrlash doirasini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilar tafakkurini o'stiradi. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda innovatsion yondashuv talab etiladi. Dastlab innovatsiya so'zining ma'nosini izohlasak. Innovatsiya (inglizcha – "yangilik", "ixtiro") demakdir. Demak ta'lim tizimidagi innovatsiya deganda, dars jarayonlariga o'ziga xos tarzda olib kirilgan yangilik, noodatiy dars tushuniladi. Darslarga innovatsiya kiritgan holda tashkil etilsa, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishi va bilim olishga bo'lgan ishtiyoq yanada ortadi. Bilim o'zlashtirish sifati darjasini yanada yaxshilanadi. Darslarga innovatsiya kiritilganda, quyidagilarga erishish mumkin.

1. Dars jarayonlarida o'qituvchi va o'quvchining faol ishtirokini ta'minlash.
2. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish.
3. Yangi bilimlar va ma'lumotlarni dars jarayonida o'zlashtirish.

Darslarni tashkil etishda yangi interaktiv metodlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, dars samaradorligini oshiradi. Barcha fanlarni o'qitishda ta'limiy metodlar va didaktik o'yinlarning ahamiyati katta hisoblanadi. Darslarda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin.

1. "Tezkor tozalash" metodi.

Ushbu metodni barcha fanlarda qo'llash mumkin. Misol tariqasida, Tabbiy fan, Ona tili va boshqa fanlarda qo'llash mumkin. Ushbu metodni qo'llash quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Dastlab doskaga mavzuga oid ma'lumotlar aralash tarzda yoziladi. O'quvchilar 2 guruhga bo'linib, navbat-navbat doskaga chiqadilar. O'qituvchi ta'rifi bergan ma'lumotni ma'lumotni qaysi jamoa a'zosi birinchi bo'lib, topib o'chirsa, o'sha guruhga ball olib beradi. Darsda ushbu metodni qo'llash orqali o'quvchilarning ziyraklik qobiliyati oshadi, diqqati jamlanadi. O'qituvchi tomonidan maxsus tayyoragarlikni talab etmaydi. Mavzuni mustahkamlashga yordam beradi.

2. "G'ijimlangan qog'oz" metodi.

Makur metodni barcha fanlarda qo'llash mumkin. Eng birinchi navbatda mavzu doskaga yoziladi. Sinfdag'i o'quvchilardan 2 ta guruh hosil qilinadi. O'qituvchi mavzuga oid biror tushuncha yoki fanga oid biror atamani 2 ta listga yozadi, va



ikkala jamoaning yetakchi o‘quvchilariga o‘sha listni g’ijimlab otiladi. O‘quvchilar listda yozilgan jumlani davom ettirib, uni izohlashi kerzak bo‘ladi. Har bir ishtirokchi 1 tadan so‘z yozish imkoniyatiga ega. Shu tariqa ishtirokchilar g’ijimlangan qog’ozlarni bir-birlariga otib, ma’lumotni to‘ldiradilar. Qaysi jamoa birinchi va to‘liq javob bersa, o‘sha jamoa g’olib bo‘ladi. Ushbu metodni quyidagi afzallik jihatlari bor.

- Egallangan bilimlarni yanada mustahkamlab, mavzu bo‘yicha keraklilarini izlash.
- Birdamlik va jamoa bilan ishslash ko‘nikmasini shakllantirish.
- Ziyaraklik va tezkorlikni oshirish va boshqalar.

“Raketa o‘yini” – doskaga raketa rasmi chiziladi yoki uchta raketa yasab savollar yozilgan kartochkalar ilinadi. Raketa o‘zga sayyoraga uchish uchun yuklardan holi bo‘lishi kerak. O‘quvchilar 3 guruuhga bo‘linadilar. Qaysi guruh a’zolari savollarga to‘g’ri va aniq javob bersa, kartochkalar olib tashlanadi. To‘g’ri javob berilmagan kartochka raketada qoladi va u raketa ucholmaydi. Yangi mavzuni tushuntirishda raketa yetib brogan sayyoradan kelgan ma’lumotlar sifatida mavzu tushuntirilsa, qiziqarliroq bo‘ladi. O‘quvchilarni darsga bo‘lgan ishtiyoqi yanada ortadi.

“Mavzular aylanganda” metodi – bu metod ham o‘quvchilarda katta qiziqish uyg’otadi. Ushbu metodni Ona tili, Tabiiy fan, Tarbiya kabi fanlarni o‘qitishda qo‘llash mumkin. Mazkur metodni qo‘llash tartibi quyidagicha amalga oshiriladi.

• Har bir o‘quvchiga ma’lum mavzular doirasida atamalardan bittasini varoqqa yozishlari kerak bo‘ladi.

• Doska yoniga bitta stul chiqariladi. Istalgan bir o‘quvchi stulga o‘tiradi. 5 ta o‘quvchi esa, qo‘llariga atama yozilgan varaqni olib o‘tirgan o‘quvchi atrofida aylana bo‘lib turadi.

• O‘tirgan o‘quvchining ko‘zi yumiladi. Musiqa ostida o‘quvchilar stulda o‘tirgan o‘tirgan o‘quvchi atrofida aylana boshlaydi.

• Musiqa tugagach, o‘tirgan o‘quvchi ro‘parasida kim turib qolsa, o‘quvchi o‘sha tengdoshining qo‘lidagi varoqda yozilgan atamani izohlab, namuna keltirishi kerak. O‘yin shu tarzda davom etadi.

Ushbu metod ham o‘quvchilarda darsga bo‘lgan qiziqishni yanada orttirib, faollikka undaydi.

XULOSA

Umumiy qilib aytganda, dars samarali va mazmunli o‘tishi, ko‘p jihatdan pedagogning mahorati va malakasiga bog’liq hisoblanadi. Yangi metodlar va



zamonaviy texnologiyalar asosida dars tashkil etilsa, o‘quvchilarda mavzuni tushunish va anglab olish ko‘rsatkichi yuqorilaydi. Bilim olishga bo‘lgan motiv shakllanadi. Dars qiziqarli o‘tadi va ta’lim sifati ancha yaxshilanadi. Shunday ekan boshlang’ich sinf o‘quvchilariga sifatli bilim berishning ahamiyati katta. Innovatsiya olib kirilgan dars muhiti noodatiy shaklda o‘tadi. Yoshlar kelajak bunyodkori, yurtning yuksalishida eng katta ahamiyat kasb etuvchi shaxslardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madayev, O., Sobirov, A., Xolmanova, Z., Toshmirzayeva, S., Ziyodullayeva, G., & Shamsiyeva, M. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Va O ‘Rta Maxsus Ta’lim Vazirligi.
2. Amonov M. “Innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish” o‘quv qo‘llanma .
3. Jamoliddinova D, Meliboyeva S “Boshlang’ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya, integratsiyasi”.
4. Atayeva N, Rsulova F, Hasanov S “Umumiy pedagogika”.
5. Akaboyeva D, Akaboyeva A, Davirova N, “Boshlang’ich ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash usullari”.
6. Ikromjonovna, J. S. (2024, March). Methods of Teaching Mathematics in Primary Classes. In International Global Conference (Vol. 1, No. 4, pp. 19-25).
7. Jumanova, S. I., & Mullaboyeva, G. (2023). Bolalarni Maktab Ta’limiga Tayyorlashda Sharq Va G ‘Arb Allomalarining Qarashlaridan Foydalanish. Educational Research in Universal Sciences, 2(14), 445-451.
8. Shokirova H “Ta’limda innovatsion texnologiyalarning o‘rni” .